

XOJAGON TASAVVUFİY TARIQATI VA HOZIRGI ZAMON

Sharipova O.T.

BuxDU, Islom tarixi va manbushunosligi,
falsafa kafedrası professori v.b.,
falsafa fanlari doktori(DSc)

Annotatsiya: ushbu maqolada xojagon-tasavvufiy tariqatining asoschisi Xoja Abdulkholiq G'ijduvoniy dunyoqarashinig shakllanishida ustozi Yusuf Hamadoniyning urni va rolini ifodolovchi fikrlar manbalar asosida olib berilgan. Mavzuni yoritishda Yusuf Hamadoniyning Hayot mezoni, Odobi tariqat, Koinot va inson asarlaridagi mavzuga oid fikrlar falsafiy tahlil qilingan. Manbalardagi falsafaning umumnazariy masalalariga oid ontologiya, gnoseologiya, aksiologiya, etika masalalari qiyosiy yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: tasavvuf, tafakkur, ilm, vijdon, vatanparvarlik, ijtimoiy hayot, axloqiy tarbiya, kamolot, dunyoqarash, ruhiy komillik, murid, murshid,

Annotation : In this article, the views of the founder of the Khojagan mystical sect, Khoja Abdulkhalik Gijduvani, reflects the place and role of this teacher Yusuf Hamadoni in shaping the worldview, is revealed to the main sources. In covering the topic, a philosophical analysis of Yusuf Hamadani's views on the criteria in the works of Life Criteria, Etiquette, Universe and Man was made. The sources comparatively cover the issues of ontology, epistemology, axiology, and ethics related to the general issues of philosophy.

Key words: Sufism, contemplation, science, honesty, patriotism, social life, moral maturity, wisdom, good deeds, spiritual perfection, apprentice, teacher.

Tasavvuf-bu insonning ruhiyati va ma’naviy olamidagi jarayon bo‘lib, insonni ruhiy va ahloqiy kamolotga etkazuvchi bir ilmdir. Tasavvufning mavzusi-Haqqa etishish uchun nafshi tiyib, axloqni go‘zallashtirish bo‘lib, uning mavzusini inson ruhi, xulqi va ruhoniy tuzilishi tashkil qiladi. Yaqin va O‘rta Sharqda IX asr boshlariga kelib, tasavvufning nazariy va amaliy asoslari ishlab chiqildi.

Tariqat ahli-so‘fiylardir. Tariqatning asl mohiyati ibodat va poklik bo‘lganligi uchun mazkur mazhab dinu islomga zid emas. Tariqat bashariy vujuddan qutilib, ruhiy kamolotga tuyassar bo‘lish orzusi, ya’ni insoniylik, ilohiylik haqiqatini topishdan iboratdir. Shu ma’noda, Abdulkholiq G'ijduvoniy acos solgan xojagon tariqatining ham asosini muqaddas islomiy manbalar tashkil etgan bo‘lib, o‘ziga xos ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga asoslangan ta’limotdir.

Xoja Abdulkholiq G'ijduvoniy ulug‘ orif, mutasavvifdir. Ushbu tariqat O‘rta Osiyoda vujudga kelgan ilk mumtoz tariqat hisoblanadi. Abdulkholiq G'ijduvoniy xudbinlik, hasad, rashk, kahru g‘azab, manmanlikni odam uchun illat hisoblaganlar va bu illatlarni johillik, nodonlik natijasi deb bilganlar.

Hozirgi global jamiyatda yoshlarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda tasavvuf ta’limotining, ayniqsa, Abdulkholiq G'ijduvoniy asos solgan Xojagon tariqatining o‘gitlari beqiyos ahamiyatga egadir. Biz asosiy qismda ushbu tariqat mohiyatini qisqacha bo‘lsa ham olib berishga harakat qilamiz.

Abdulkholiq G'ijduvoniy Xojagon tariqatining ijodkori sifatida o‘ziga xos

ma'naviy, axloqiy qadriyatlarga, xususan, insonparvarlik, mehr-shafqat, adolat g'oyalariga alohida e'tibor qaratgan mutafakkirdir.

XV asrning adibi va mutafakkiri Abdurahmon Jomiy tasavvufning yirik namoyandalari haqida qomusiy ma'lumotlarni qoldirgan. Bu ulug' zotning ikkita: "Nafahot ul uns" va "Bahoriston" asarlarida Abdulkoliq G'ijduvoniy haqida yozib qoldirgan ma'lumotlar bor. "Nafahot ul uns" - ("Quvonchli tuhfalar") Abdurahmon Jomiyning tasavvuf ahli tarjimai holi va ijodini o'z ichiga olgan tazkirasi 1475- 1476 yillarda yozilgan. Asarda turli davrlarda yashagan tasavvuf tariqatining 600dan ziyod vakili haqida ma'lumot beriladi. Asarning 242-243 betlarida Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniy haqida ma'lumot berilgan. Alisher Navoiy bu asardan ilhomlanib, "Nasoyimul muhabbat" asarini yozgan. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul muhabbat min shamoyimul futuvvat" asarida Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniy to'g'risida ma'lumotlar o'rinni o'lgan.

Xojai Jahon "Vasiyatnama", "Maqsad as solikin", "Maqomoti Xoja Yusuf Hamadoniy" asarlarida tariqatining mohiyatini ochib bergen. Avvalambor falsafaning bosh mavzui hisoblangan inson muammosi haqida fikrlar bildirib, uni ham "olami kabir", ham "olami sag'ir" deb ataydi. Kabirligi, ya'ni buyukligi uning tafakkuri bo'lsa, sag'irligi, ya'ni kichikligi boshqa tirik organizmlardek, o'tkinchilik xarakteriga egaligidir.

Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniy Xojagon-Naqshbandiya tariqatining asoschisi, uning rivojiga ulkan hissa qo'shgan piri komil sifatida: birinchidan, Xojagon sulukida xafiy zirkni boshlab bergen bo'lsa, ikkinchidan, ustozni Xoja Yusuf Hamadoniy tomonidan ishlab chiqilgan va Xojagon-Naqshbandiya tariqatining bosh tamoyillariga aylangan: "Xush dar dam", "Nazar bar qadam", "Safar dar vatan", "Xilvat dar apjuman" qoidalariga yana to'rtta: "Yodkard", "Bozgasht", "Nigoxdosht", "Yoddosht" kabi rashhalarni qo'shdi.

G'ijduvoniy ta'lomitidagi barcha umuminsoniy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar: ota-onaga, ustozlarga hurmat, katta-yu kichikka izzatda bo'lish, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, botiniy-zohiriyligini pok bo'lish, halol mehnat bilan yashash, doimo yaxshilar bilan bo'lish, solih ishlarni amalga oshirish, hamda odob - axloqli bo'lish, yomonlarga yomonlik bilan javob bermaslik, ularning yomonligi o'zi uchun berilgan jazo ekanligini tushunish, aqlga muvofiq ish tutish, xayrli bo'lish, ilm olish farzligi, o'zgalarga nisbatan mehribonlik, do'stlik, iymon, ijtimoiy hayot qonuniyatlariga rioya etish va boshqa barcha fazilatlarning hammasi hadislarda mavjuddir. Shuning uchun Xojai Jahon shunday bebaaho xazina hisoblanmish hadislardan doimo bahramand bo'lishga chorlaydi.

Xojai Jahon yoshlarni ilm olishga da'vat etganda, nafaqat diniy, balki dunyoviy ilmlarni ham o'rganish lozimligini uqtiradi. Chunki Tangrini bilish u yaratgan narsalarni o'rganishdan boshlanadi. Zero kishi ilm bilan o'z oldiga qo'ygan barcha ezgu maqsadlariga erishadi. Tasavvuf ahli dunyoviy va shariat ilmlarini "zohiriyligini" deb, ma'rifatni esa "botiniy ilm" deb yuritganlar. Tasavvuf ahli zohiriyligini Tangrini bilishning birinchi bosqichi, deydilar. Alloho bilish dunyoni bilishdan boshlanishi kerak. Tasavvuf ta'lomitida dunyo-Tangrining ijodi, uning sifatlari, qudratini namoyon etib turadigan ko'zgu hisoblanadi. Xojai Jahon Abdulxoliq G'ijduvoniydan "Ma'rifatning kamoli nimada?" - deb so'raganlarida, mutasavvif

quyidagicha javob beradi: “Xudovand senga ko‘z berdi-ko‘rish quvvatini ato etdi. U til berdi va shirin so‘zlashish qudratini ato etdi. Ulardan to‘g‘ri foydalanish, saodatga eltishga sabab bo‘ladi, ularni noto‘g‘ri gunoh yo‘lida ishlatish esa, shaqovat-ya’ni baxtsizlikni keltirib chiqaradi. Ma’rifatning kamoli uldurki, shu sabablarni yomonlik yo‘lida ishlatmasin. Shu yuqoridagi latoiflarning to‘g‘ri, Haq yo‘lida ishlashi insonda komil ma’rifat borligidan darak beradi. Ma’rifatning chegarasi nafsni boshqarish va buning tadbiri halol narsalardangina bahramand bo‘lmoqni odat qilmoqdur,”¹⁷⁷- deyiladi. Ma’lumki, tasavvuf ahli bilim bosqichlarini uchga bo‘ladi, ya’ni ilmal yaqin, aynul yaqin, haqqul yaqin. Arabcha “yaqin” so‘zi ishonch, biron narsaga qat’iy ishoniшni anglatadi. Ilmal yaqin, aynul yaqin, haqqul yaqin bilishning uch bosqichi. Birinchi bosqich - -kitobi, tahsiliy bilimga ishora bo‘lsa, ikkinchi bosqich o‘z ishtirokidagi ma’naviy, ruhiy holat, tajribaviy bilimni anglatadi, uchinchi bosqich esa, o‘zi tajriba vositasiga aylanib, haqiqatni, ya’ni ruhiy komillikka erishishdir. Ilm-al yaqin-bilim orqali ishoniш bo‘lib, ayn-al yaqin to‘liq ilmni tajriba qilib ko‘rib ishoniш va Haqq-al yaqin-haqiqiy ishonch. Shuningdek, Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniш birodarlikka qabul qilinayotgan kishiga qo‘yiladigan beshta talab, xislatning ikkinchisi-ilmni dunyo ishlaridan yuqori qo‘yadigan bo‘lishi kerak. O‘z ilmini boyitib borishga hamisha vaqtini topishi va har bir qiladigan ishning ilmini bilishi lozim. Insonning kamolga etishida ilm asosiy omil ekanligini ta’kidlab, G‘ijduvoniш ilm va ma’rifatning qadrini doimo baland tutishni ta’kidlagan. Shuning uchun Abdulxoliq G‘ijduvoniш ham dinning taraqqiyotida fanning rolini bilgan va botinning kamol topishida zohiriш ilmlar-ilmi qolning o‘rnini muhim degan.

Abdulxoliq G‘ijduvoniш ilmni bag‘oyat teran va har tomonlama o‘rganishga da’vat qiladi, ilm amal bilan hayotiy ekanligini ta’kidlaydi. Har qanday amalni qalbdan, ixlos bilan ado etish kerakligini quyidagi o‘gitlarida ifodalaydi. “Islom asosi uch narsadadur: birinchisi; har toate ibodatkim aylarsiz-aning ilmidan voqif bo‘ling!, ikkinchisi; har ilmniki o‘rganibsiz-unga amal qiling!, uchinchisi, har amalniki etgaysiz-sidqu ixlos bilan eting!”¹⁷⁸. Mutasavvif “”Vasiyatnama”da: “Ey farzand, ilm o‘rgan, unga amal et. Taqvoli bo‘l,-!”deydi.¹⁷⁹ Bu hikmat payg‘ambar alayhissalomning nasihatlari, ilmning imon bilan bir-biriga juda yaqinligi, ular bir-birisiz durust emasligiga bag‘ishlab bitilgan hadislari hosilasidir.

Shuningdek, Xojai Jahonning ilmni yuksak qadrlashlarini ustozlari Yusuf Hamadoniш haqida gapirganlarida, u kishining ham ilm targ‘ibotchisi ekanliklarini faxr bilan tilga oladi.

Umuman olganda, Xojai Jahon ilm o‘rganmasdan turib, biror ishga kirishmaslikka, har ilmni o‘rgangan kishi unga amal qilishga, qilinadigan amal sidqu-ixlos bilan qilinishiga, ilm egalari va shayxlarning ta’limotini inkor etmaslikka, doimo ilmning qadrini baland tutishga, unga gard yuqtirmaslikka da’vat etadi. Xojai Jahonning muridlariga ta’kidlagan quyidagi o‘giti chuqur ma’naviy axloqiy qimmatga egadir: «Qaerda bo‘lmang, sizning oldingizda qanday qiyinchiliklar bo‘lmasin, to‘sqliar, daryolar, olovlar bo‘lsa ham, siz bularni bartaraf etib, bilimni egallashingiz

¹⁷⁷ Ориф Ревгарий. Орифнома.-Б. 6.

¹⁷⁸ Абдухолик Фиждувоний. Маслак ал орифин.-В.17 а.

¹⁷⁹ Шаҳобиддин ибн бинту Амир Ҳамза. Мақомоти Амир Кулол.-Б.38.

kerak. Faqat ilmgina insonga haqiqiy rux, rohat bag‘ishlaydi»¹⁸⁰. Shunnigdek, “Vasiyatnama”da so‘fiyning eng asosiy vazifasi, burchi barcha diniy faroyizlarni, ya’ni namoz o‘qish, ro‘za tutish, zakot berish va Hajga borishni bajarishi lozim, parhezkor, taqvodor, porso bo‘lmog‘i kerakligi bayon etilgan.

Hozirgi murakkab, global jamiyatda yoshlarni barkamol qilib tarbiyalashda Abduxoliq G‘ijduvoniy ta’limoti katta ahamiyatga egadir.

Ingliz sharqshunos olimi J.S.Trimingem o‘zining “Islomdagi so‘fiylar mazhabi” nomli asarida “Abdulxoliq G‘ijduvoniy asos solgan tasavvufiy tariqat zamon, vaqtarning vayron qiluvchi ta’sirlariga qaramasdan, hozir ham Xojai Jahonning muridlik, ta’lim va sof tartibu taomil haqidagi daholik osoru izini (pechat geniya) yo‘qota olmadi” deb bejiz aytmagan.

Adabiyotlar ro`yxati

- 1.Abduxoliq G‘ijduvoniy. Vasoië.-V.18 a.
- 2.Orif Revgariy. Orifnoma.-B. 6.
- 3.Abduxoliq G‘ijduvoniy. Maslak al orifin.-V.17 a.
- 4.Shahobiddin ibn bintu Amir Hamza. Maqomoti Amir Kulol.-B.38

¹⁸⁰ Сухарева О.А. История среднеазиатского костюма. 1982, С.7